

FORS VA O'ZBEK TILLARIDA KELISHIKLARINING QIYOSIY TAHLILI

Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna
Oriental universiteti "O'zbek va sharq tillar"
kafedrası katta o'qituvchisi

Ravshanova Risolat
Oriental universiteti Filologiya fakulteti
arab tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi
+998 90 353 22 01

Annotatsiya. Ushbu maqolada fors va o'zbek tillarida kelishiklar tizimi qiyosiy tahlil qilinadi. Mazkur tillarning grammatik qurilishi, xususan kelishik shakllari va ularning funksiyalari o'rganilib, ularning umumiy va farqli jihatlari ochib beriladi. Tadqiqot davomida o'zbek tilidagi olti asosiy kelishikning morfologik va sintaktik xususiyatlari fors tilidagi ikki asosiy kelishik bilan taqqoslanadi. Kelishiklar tildagi so'zlar o'rtasidagi bog'lanishlarni ifodalashda qanday o'rin tutishi misollar asosida ko'rsatiladi. Maqola fors va o'zbek tillarining grammatika tizimidagi o'ziga xosliklarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda lingvistik tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: fors tili, o'zbek tili, kelishiklar, qiyosiy tahlil, grammatika, morfologiya, sintaksis, tillararo tadqiqot.

Til grammatik qurilishining eng muhim bo'g'inlaridan biri kelishik tizimidir. Kelishiklar so'zlarning gapda boshqa so'zlarga bog'lanishini ta'minlab, tildagi sintaktik aloqalarni belgilaydi. Fors va o'zbek tillari bir-biriga uzoq tarixiy aloqalar orqali bog'langan bo'lsa-da, ularning grammatik tizimi, xususan kelishiklari turli xususiyatlarga ega. Ushbu maqolada fors va o'zbek tillaridagi kelishiklarning o'xshashliklari va farqlari tahlil qilinadi. Otlarga qo'shilib, ularni o'zidan keyin kelgan boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiluvchi grammatik shakllar tizimi kelishik shakllari sanaladi. Kelishiklarning soni tillarda bir xil emas. Hozirgi zamon ingliz tilida ikkita, nemis tilida-to'rtta, arab tilida-uchta, o'zbek va rus tillarida-oltita, eston tilida o'n beshta, venger tilida esa yigirmatadan ortiq kelishiklar bor. Xitoy-tibet tillarida va hozirgi fransuz tilida kelishik umuman yo'q. Kelishik yo'q tillarda gapdagi so'zlar o'rtasidagi munosabat boshqa grammatik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bir tilda bor kelishik boshqa tillarda ham mavjud deyish noto'g'ridir. Buni fors va o'zbek tillaridagi kelishiklarni qiyoslash orqali ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilida oltita kelishik mavjud bo'lib¹³, ularning har qaysisining o'z nomi va shakli bor. Birinchisi, bosh kelishik shakli bo'lib, u maxsus qo'shimchaga ega emas. Bu

¹³ Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1987, 235-b.

shakl kim?, nima?, qayer? so'roqlarining biriga javob bo'ladi va gapda ko'pincha ega, ot, kesim, undalma vazifasida keladi. Masalan: 1. Aziza 2-kurs talabasi. 2. Eronning poytaxti-Tehron. 3. Toshkent, munchalar go'zalsan! Ikkinchi shakl qaratqich kelishigi bo'lib, -ning qo'shimchasi orqali bo'g'lanish sodir bo'ladi va bunda qaratqich kelishigi shaklidagi so'z-qaratqich, qaratqich bog'lanib kelgan so'z esa qaralmish deyiladi. Qaratqich kelishigida tovush tushish hodisasi ham kuzatilishi mumkin. Misol uchun: men+ning=mening. Uchinchi kelishik shakli tushum kelishigidir va u -ni qo'shimchasi orqali bog'lanadi. Tushum kelishigi shaklini olgan so'z doimo o'timli fe'lga bog'lanib keladi. Tushum kelishigidagi so'z bilan o'timli fe'l yonma-yon kelsa, ko'pincha tushum kelishigi qo'shimchasi tushib qoladi. Masalan, kitobni o'qidim-kitob o'qidim. Tushum kelishigidagi so'z gapda doimo to'ldiruvchi vazifasida keladi. Bu kelishik shaklida ham tovush tushish hodisasi ro'y beradi: men+ni=meni. To'rtinchisi, jo'nalish kelishigi shaklidir. -ga, -ka, -qa jo'nalish kelishigi qo'shimchalari bo'lib o'rin-joy otlariga qo'shib, qayerga? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda o'rin holi vazifasida keladi. Payt otlariga qo'shib, qachon? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda payt holi vazifasini bajaradi. Shaxs va narasa otlariga qo'shib, kimga?, nimaga? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda to'ldiruvchi vazifasida qo'llaniladi. Jo'nalish kelishigida tovush almashinishi va tovush ortirilishi hodisalari ro'y berishi mumkin. Masalan: yurak+ga=yurakka, qishloq+ga=qishloqqa, u+ga=unga. Beshinchi kelishik shakli o'rin-paytdir. U -da qo'shimchasini oladi va o'rin-joy otlariga qo'shib, qayerda? so'rog'iga javob bo'ladi va hokim qism ifodalagan harakatning o'rnini bildiradi. Bunday otlar gapda o'rin holi vazifasida keladi. Payt otlariga qo'shib, qachon? so'rog'iga javob bo'ladi va hokim qismda ifodalangan harakatning paytini bildiradi. Bunday so'zlar gapda payt holi vazifasida keladi. Shaxs va narsa otlariga qo'shib, kimda?, nimada? so'roqlariga javob bo'ladi. Bunday otlar gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi. Bu kelishik shaklida tovush ortishi hodisasi kuzatilishi mumkin. Misol uchun: u+da=unda. Oltinchisi chiqish kelishigi bo'lib, -dan qo'shimchasini oladi va u o'rin-joy otlariga qo'shib, qayerdan? so'rog'iga javob bo'ladi va o'rin holi vazifasini bajaradi. Payt otlariga qo'shib, qachon? so'rog'iga javob bo'ladi va payt holi vazifasida keladi. Shaxs va narsa otlariga qo'shib, kimdan?, nimadan? so'roqlariga javob bo'ladi va to'ldiruvchi bo'lib keladi. Ba'zan ayrim otlar, sifatdoshlar va boshqa so'zlarga qo'shib, nima sababdan? so'rog'iga javob bo'ladi va sabab holi vazifasida keladi. Ba'zan tushum kelishigi o'rnida chiqish kelishigi shakli ishlatilinishi mumkin. Lekin ularning ma'nosida ma'lum farq bor. Tushum kelishigidagi so'z butunni, chiqish kelishigidagi so'z qismni bildiradi. Bu kelishik shaklida ham tovush ortishi hodisasi ro'y berishi mumkin. Masalan: u+dan=undan.

Fors tilida kelishiklar (morfologik o'zgarishlar orqali) odatda ko'makchi so'zlar va so'z oxiriga qo'shimchalar qo'shilishi bilan ifodalanadi. Fors tilida o'zbek tilidagidek aniq 6 kelishik tizimi mavjud emas, lekin turli ko'makchilar orqali o'xshash vazifalar bajariladi. Bosh kelishik (nominativ) so'zning asl shakli, hech qanday qo'shimchasiz ishlatiladi. Masalan: خانه (khâne) – uy, کتاب (ketâb) – kitob. Qaratqich kelishik (genitiv)

egaga nisbatan bog'lanish ifodalanadi. Bu maqsadda "e" yoki "ye" bog'lovchisi ishlatiladi: کتاب علی (ketâb-e Ali) – Aliyning kitobi, خانه در (dar-e khâne) – uying eshigi. Tushum kelishik (akuzativ): to'g'ridan-to'g'ri ob'yektni bildiradi. Bu maqsadda "را" (râ) ko'makchi so'zi ishlatiladi. Masalan: کتاب را خواندم (ketâb râ khândam) – kitobni o'qidim, او را دیدم (u râ didam) – uni ko'rdim. Jo'nalish kelishik (dativ): kimga yoki qayerga degan savollarga javob beradi. "به" (be) ko'makchi so'zi qo'llanadi: به رفتم (be khâne raftam) – Uyga bordim, به او گفتم (be u goftam) – Unga aytdim. O'rin-payt kelishik (lokativ): qayerda yoki qachon degan savollarga javob beradi. Bu maqsadda "در" (dar) yoki boshqa o'rin bildirish ko'makchilari ishlatiladi: در خانه هستم (dar khâne hastam) – Uyda (ichida)man, گذشته سال در (dar sâl-e gozashte) – O'tgan yilda. Chiqish kelishik (ablativ): qayerdan degan savolga javob beradi. "از" (az) ko'makchisi ishlatiladi. Masalan: از خانه آمدم (az khâne âmadam) – Uydan keldim, از پورسیدم (az u porsidam) – Undan so'radim.

Fors tilida qo'shimchalarning o'zi emas, balki ko'makchi so'zlar, predloglar kelishik vazifasini bajaradi. Shu sababli, so'zlar alohida kelishiklarda qatnashish uchun ko'pincha predloglarga bog'lanadi. Bu fors tilini o'zbek tili kelishiklaridan asosiy farqlaridan biridir. Fors va o'zbek tillaridagi kelishiklarning o'xshashliklari ham mavjud bo'lib, ikkala tilda ham bosh kelishik so'zning lug'aviy shakli bilan ifodalanadi. Chiqish, jo'nalish va o'rin-payt kelishiklari har ikkala tilda ham mavjud bo'lib, turli grammatik vositalar yordamida ifodalanadi.

Fors va o'zbek tillaridagi kelishiklar tizimi qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu ikki til bir-biridan grammatik jihatdan sezilarli farqlarga ega bo'lsa-da, ular o'rtasida muayyan o'xshashliklar ham mavjud. O'zbek tili agglutinatив tuzilishi sababli boy kelishiklar tizimiga ega bo'lib, olti asosiy kelishik vositasida so'zlar o'rtasidagi sintaktik bog'lanishni ta'minlaydi. Fors tili esa analitik xususiyatga ega bo'lib, asosan ikki asosiy kelishik – ravona va izofa shakllari yordamida bu funktsiyani bajaradi. Ushbu tadqiqot fors tilida kelishiklarning funktsiyalari ko'proq kontekst orqali aniqlanishini, o'zbek tilida esa bu vazifa qo'shimchalar yordamida ifodalanishini ko'rsatdi. Bu tilshunoslikda kelishiklar tizimining universalligi va milliy o'ziga xosligini chuqurroq o'rganish uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akhmedova, D., Alimova, K., Azimdjanoval, D., Nuriddinov, N., Azimbayeva, N., & Arifdjanov, Z. (2023). Polysemy of Simple Verbs in the Persian Language. language, 1, 3.
2. Azimbayeva, N. (2023). A COMPARATIVE STUDY OF SIMILES IN PERSIAN AND UZBEK LANGUAGES. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(22), 123-125.

3. Azimbayeva, N. (2023). CENTRAL ASIA AND KAZAKHSTAN IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ACADEMICIAN BA AKHMEDOV. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(6), 479-486.

4. Azimbayeva, N. (2023). Uzbek, Persian, Russian and English alternatives of wise words used in "Nazm ul-Javahir". *The Peerian Journal*, 19, 53-55.

5. Исматуллаева, Н. Р. (2022). ЧЕТ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ИНТЕРАКТИВ ДОСКАДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 96-98.

6. Ismatullayeva, N. R. (2022). Teaching Translation Methodology in the Foreign Language Classes. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(12), 448-452.

